

TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Xo'janazarova Nazira Omonjanovna,
Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya fakulteti katta o'qituvchisi
[*hujanazarovanazira@gmail.com*](mailto:hujanazarovanazira@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli vositalarining koreys madaniyati va tilini o'rganish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamlashtirishning ta'limga ta'siri o'rganilib, o'quvchilarning “한류 (hallyu) – Koreya to'lqini” orqali koreys madaniyatiga qiziqishi va tilni o'zlashtirish jarayoni yoritiladi. Mediasavodxonligining mazmuni, uning tahliliy va tanqidiy fikrlashdagi roli izohlanadi. Shuningdek, koreys tilini o'rganayotgan talabalar bilan o'tkazilgan amaliy tadqiqot natijalari keltirilib, raqamlashtirishning ta'limiy jarayondagi samaradorligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: media, koreys tili, koreys madaniyati, hallyu, media savodxonligi, raqamli ta'lim, tanqidiy fikrlash, o'quv jarayoni, loyihaviy ish, madaniyat ta'limi.

ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье анализируется значение цифровых средств в процессе изучения корейской культуры и языка. Изучается влияние цифровизации на образование, освещается интерес учащихся к корейской культуре и процесс овладения языком через феномен «한류 (халлю) – Корейская волна». Раскрывается содержание медиаграмотности, её роль в развитии аналитического и критического мышления. Также представлены результаты практического исследования, проведённого со студентами, изучающими корейский язык, и продемонстрирована эффективность цифровизации в образовательном процессе.

Ключевые слова: медиа, корейский язык, корейская культура, халлю (hallyu), медиаграмотность, цифровое образование, критическое мышление, учебный процесс, проектная работа, культурное образование.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE

Annotation: This article analyzes the significance of digital tools in the process of learning Korean language and culture. The impact of digitalization on education is examined, highlighting students' growing interest in Korean culture and language acquisition through the phenomenon of “한류 (Hallyu) – the Korean Wave.” The concept of media literacy is explained, along with its role in developing analytical and critical thinking skills.

Additionally, the results of a practical study conducted among students learning Korean are presented, demonstrating the effectiveness of digitalization in the educational process.

Keywords: media, Korean language, Korean culture, Hallyu, media literacy, digital education, critical thinking, educational process, project-based work, cultural education.

KIRISH

Yangi media paydo bo'lishi bilan jamiyat va madaniyat dinamik ravishda o'zgarib bormoqda. Medianing rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, ta'lim shakli, usullari va mazmunini yangilash zaruratini tug'dirdi. Yangi texnologiyalar, ayniqsa, raqamli platformalar, nafaqat o'quv-uslubiy vosita, balki talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltiruvchi madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Koreys tili va madaniyatini o'rganishda esa bu holat ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. “한류 (hallyu)” – Koreya to'liqini fenomeni yosh avlodning til va madaniyatga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Bu tendensiya zamonaviy o'quvchi uchun nafaqat til o'rganish, balki madaniy tafakkurni shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotchilar media va ta'lim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, media vositalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilmoqdalar.

Koreys tili ta'limida hozirgacha o'quvchilarning media bilan aloqasi asosan “한류 (hallyu) - Koreya to'liqini”ga qaratilgan. Koreya seriallari, filmlari, K-pop musiqasi va ko'ngilochar dasturlar turli media vositalari orqali tomosha qilinib, ular haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar orqali baham ko'riladi. Bu esa media foydalanuvchilarining Koreya madaniyati haqidagi bilimlarini kengaytirishiga va ushbu qiziqish doirasida koreys tilini o'rganishlariga sabab bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ayniqsa xorijiy til o'rganish kontekstida, zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida talabalarning til va madaniyatni o'zlashtirish jarayonlari ham tubdan o'zgarmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol olib borilmoqda.

Kramsch (1998) ta'kidlaganidek, tilni o'rganish — bu nafaqat grammatikani o'zlashtirish, balki boshqa madaniyatni anglash, unga empatiya bilan yondashishdir.

Aynan shu jihat til o'rganuvchilarni madaniy tafakkurga olib kiradi. Bennett (1993) tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo sezgirlik modeli talabalarning madaniy ongini bosqichma-bosqich shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu model talabaning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va empatik muloqotga kirishish salohiyatini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar bu jarayonda asosiy vositaga aylanmoqda. Jin & Yoon (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda global miqyosda keng tarqalgan “한류 (hallyu)” – Koreya to'liqini orqali yoshlarning koreys madaniyatiga qiziqishi kuchaygani va bu holat ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasiga bevosita ta'sir qilgani isbotlangan. YouTube, TikTok, Instagram kabi platformalar orqali talabalar koreys madaniyatini nafaqat o'rganmoqdalar, balki uni qayta talqin qilib, yangi kontekstlarda ifoda etmoqdalar. Bu esa remiks madaniyati (remix culture) shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Gilster (1997) media savodxonlikni “raqamli ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati” sifatida talqin qiladi. Bloom & Johnson (2010) esa yangi media muhitida o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki media savodxonlikni shakllantiruvchi, tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi murabbiy sifatida qaralayotganini ta'kidlaydi. Warschauer (2004) tomonidan ilgari surilgan raqamli tengsizlik (digital divide) nazariyasi esa barcha o'quvchilarning raqamli vositalardan teng foydalana olmasligi ularga bilim va madaniy resurslar bo'yicha orqada qolish xavfini tug'dirishini ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim tizimida raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini teng taqsimlash dolzarb vazifa sanaladi.

Media savodxonligi tushunchasi ham ushbu jarayonning ajralmas qismidir. Buckingham (2004) media savodxonlikni — media vositalaridan foydalanish, ularni talqin qilish, qayta ishlab chiqarish va tanqidiy baholash qobiliyatlari yig'indisi sifatida tariflaydi. Uning ta'kidlashicha, bu savodxonlik faqat axborot olish emas, balki uni mustaqil va ijtimoiy mas'uliyat bilan talqin qilishga qaratilgan. Freire (1971) “savodxonlik”ni faqat o'qish va yozish emas, balki dunyoni anglash va unda faol ishtirok etish vositasi sifatida ko'radi.

Mahalliy tadqiqotchilarning ishlari orasida M. Qosimova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning xorijiy til o'rganishdagi

ahamiyati yoritilgan bo'lib, bunda raqamli vositalar orqali til o'rganuvchilarni madaniyatlararo muloqotga jalb etish imkoniyati alohida ko'rsatilgan. N. Xo'janazarova (2024) esa savodxonlikni "olingan bilimlarni qo'llash, muammolarni hal qilish va jamiyat o'zgarishlariga moslashish qobiliyati" sifatida izohlaydi. Bu ta'rif media savodxonlikning ko'p jihatli mohiyatini aks ettiradi.

O'zbekistonlik olimlar, jumladan A. G'ulomov, M. Qodirov, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, T. Yusupova va boshqalar tomonidan ona tili ta'limi, metodika va til o'rgatish texnologiyalari bo'yicha yaratilgan ishlar, bu yo'nalishda asosiy nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning ishlari raqamli davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, hozirgi media va texnologik vositalar bilan uyg'unlashtirilgan holda samarali foydalanilishi mumkin.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar orqali madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish — bugungi ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, global madaniy tafakkur kabi ko'nikmalar aynan raqamli o'quv muhiti orqali shakllanmoqda. Loyiha Ishining O'рни

So'nggi yillarda media tushunchasi o'rniga raqamlashtirish tushunchasi kirib kelib, mediadan ko'ra yanada keng qamrovli bo'lib, raqamlashtirish ya'ni tizimlashtirishdir. Raqamlashtirish bu koreys tili o'qitishda foydalanadigan materiallarni raqamlashtirib qo'yish yoki raqamlashtirilgan materiallardan dars jarayonida foydalanish hisoblanadi. Raqamlashtirish orqali koreys madaniyati va tilini o'rganishni tahlil qilish uchun 6 oy davomida koreys tili yo'nalishi talabalari ishtirokida tajriba o'tkazildi. Ular "Madaniyat" kitobidan erkin mavzularni tanlab, 2 kishilik kichik guruhlariga bo'linib, koreys tilida taqdimotni tayyorladilar. Madaniyat kitobi rasmlar bilan boyitilgan bo'lsa-da, A1 darajadagi o'quvchilar uchun yuqori darajadagi til qobiliyatlarini talab qiladigan mavzular mavjud edi. Taqdimotlar koreys va o'zbek tillarida tayyorlandi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilar 한류 (hallyu) ga bo'lgan qiziqishlari sababli mavzularni tushunishda ko'rgan videolari yordam berganini ayishdi. Milliy o'yinlar, milliy bayramlar va mashhur "오징어 게임 (Kalmar o'yini)" orqali quyidagilarni o'rganganliklarini ta'kidlashdi.

Misollar:

- 1) K-drama, Quiz one Korea hamda ko'ngilochar koreys shou dasturlari orqali Koreyaning milliy bayramlarini ko'rish va tushunish;
- 2) 먹방- ko'rsatuvi orqali taomlari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- 3) 오징어 게임 (Kalmar o'yini) dagi 딱지 치기 (Ttakchi chigi) o'yini orqali koreys milliy o'yinlari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- 4) “무궁화 꽃이 피었습니다” (“Mugunghwa guli ochildi”) iborasi orqali Koreyaning milliy guli (무궁화 - gibiskus) ni o'rganish va bu gul qaysi milliy ramzlarda aks etganini o'rganish;
- 5) Sweet game orqali shirinliklar hamda ularga oid lug'atlarni o'rganish;

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Talabalar orasida koreys seriallari, K-pop musiqasi va Koreya madaniyati haqidagi YouTube videolariga qiziqish yuqori.
- 85% talabalar raqamli texnologiyalar orqali koreys tilini o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'lganini qayd etdilar.
- 70% talabalar madaniyatga oid kontentni ko'rganlaridan so'ng o'zlarining tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyati oshganini bildirgan.
- Talabalar turli media orqali olgan bilimlarini talqin qilib, yangi mazmun yaratishga harakat qilganlar (masalan, o'z vloglarini yaratish, musiqiy tarjimalar qilish).
- O'qituvchilar tomonidan media savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar orqali madaniy tafakkur va muloqot kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlangan.

Raqamli texnologiyalar orqali madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki tanqidiy fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Talabalarning texnologik vositalardan foydalanish darajasi oshgani sari, ularning madaniyatga yondashuvi chuqurlashadi. Media orqali olingan ma'lumotlar o'quvchilarning madaniy tafakkurini shakllantirib, ularni xalqaro maydonga tayyorlaydi. Biroq, bu jarayonda

ayrim cheklovlar ham mavjud: texnik yetishmovchiliklar, noto'g'ri yoki stereotipik kontentlarning ko'pligi, hamda o'quvchilarning ba'zida passiv iste'molchi bo'lib qolishi. Shu sababli, o'qituvchining vazifasi — nafaqat bilim berish, balki yo'naltiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi bo'lishidir.

XULOSA

Koreys tilini o'rganishda raqamlashtirishning ahamiyati katta ekanligi talabalarning dars jarayonidagi ishtiroki orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda. Talabalar bo'sh vaqtlarida K-dramalarni tomosha qilish, 아이돌 (idol) qo'shiqlarini tinglash, chatbotlar orqali til sohiblari bilan fikr almashish orqali koreys tilini va madaniyatini yanada chuqurroq o'rganmoqdalar. Shuningdek, raqamlashtirish yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlab chiqarish va uzatish jarayonlari ham amalga oshirilmoqda.

XXI asr raqamlashtirish asri bo'lib, raqamlashtirish orqali berilayotgan axborotlarni to'g'ri tahlil qilish va undan xulosa chiqarish muhimdir. Ushbu jarayonda o'qituvchining roli beqiyos bo'lib, media savodxonligini rivojlantirish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadjonova Madinabonu, Xo'janazarova Nazira. Koreys xalq 민담 (mindam) va o'zbek xalq ertaklaridagi o'xshashliklar va farqlar. NSIFL, 4th International Students Conference, 2024.
2. Xo'janazarova Nazira. Chet tillarni o'qitish uchun su'niy intellekt(chatbot)ning xususiyati. New Innovation in National Education for Actively Participating in the Journal. Inter Education & Global Study, 2023.
3. Xo'janazarova Nazira. Chet tili o'rgatishda dastlabki o'qitish metodikasi xususiyatlari. Badiiy va ilmiy tarjimaning lingvokulturologik muammolari va adabiyotshunoslikda komparativistik yondashuvlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024-yil 31-may.
4. Xo'janazarova Nazira. Media savodxonlik hamda raqamlashtirish muhitida koreys tilini o'qitish. Научно-теоретический и методический журнал / Scientific Theoretical and Methodical Journal, ISSN 2992-9024 (online), 2024, №10(1).
5. Xo'janazarova Nazira. Koreys tilini o'rganishda raqamli texnologiyalarning roli. "oliy ta'limda tillarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: yangicha yondashuv va tadqiqotlar" (227-232) 2025/2/28.

6. O'rinboyeva Madinabonu. Xo'janazarova Nazira. 가전체 문학 gajonche adabiyot. "oliy ta'limda tillarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: yangicha yondashuv va tadqiqotlar" (591-596) 2025/2/28.
7. internet manba
8. <https://stdict.korean.go.kr>
9. <https://ko.dict.naver.com>